

PSIXOLOGIYADA QADRIYAT TUSHUNCHASINI TADQIQ ETILISHI

Xayrullaeva Zebiniso Toxirovna

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.53885/edires.2024.04.2.054>

Annotatsiya. Maqolada qadriyat tushunchasining psixologik nuqtai nazardan tahliliga bag'ishlanadi. Ayniqsa, qadriyat tushunchasi borasidagi xorij olimlarining qarashlari keng doirada izohlanib, o'ziga xos yondashuvlar ilgari surilgan. Shuningdek, inson faoliyatida qadriyatni shakllanishining psixologik mezonlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, hayot, qadriyat, motivatsion tuzilmasi, ijtimoiy qadriyat, faol qadriyatlar, individuallik, maqsad, ehtiyoj, ijtimoiy qadriyat, shaxsiy qadriyat, interiozatsiya.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПОНЯТИЯ ЦЕННОСТИ В ПСИХОЛОГИИ

Хайруллаева Зебинисо Тохировна

Научный сотрудник Национального университета Узбекистана

Аннотация. Статья посвящена анализу понятия ценности с психологической точки зрения. В частности, широко интерпретировались взгляды зарубежных ученых относительно понятия ценности и выдвигались конкретные подходы. Также показаны психологические критерии формирования ценностей в деятельности человека.

Ключевые слова: человек, жизнь, ценность, мотивационная структура, социальная ценность, активные ценности, индивидуальность, цель, потребность, социальная ценность, личностная ценность, интериоризация.

RESEARCH OF THE CONCEPT OF VALUE IN PSYCHOLOGY

Khairullaeva Zebiniso Tokhirovna

Researcher of the National University of Uzbekistan

Abstract. The article is devoted to the analysis of the concept of value from a psychological point of view. In particular, the views of foreign scientists regarding the concept of value were widely interpreted and specific approaches were put forward. Also, the psychological criteria of value formation in human activity are shown.

Key words: person, life, value, motivational structure, social value, active values, individuality, goal, need, social value, personal value, internalization.

Ma'lumki, insoniyat va alohida shaxs ham qadriyatlar dunyosida yashaydilar. Insonni qamrab olgan butun dunyo, shaxsda dunyoga nisbatan munosabatni shakllantirishda, aynan o'shanda qadriyatli lahza jamlangan.

XX asrning boshida «qadriyatlar» muammosi aniq-ilmiy tadqiqotlar sohasiga ko'chirildi. Bu borada rus psixologlardan V.A.Yadova, V.N.Myasiščev, B.G.Ananov, A.G.Asmolova, V.P.Tugarinov va boshqalarni [1] ko'rsatish mumkin.

«Qadriyat» tushunchasiga aniqlik kiritishdagi murakkablik, ushu tushunchani juda "sodda" ko'rinishga ega bo'lib, uni o'zga murakkab tushunchalar bilan birlashtirib bo'lmashligi bilan ajralib turadi. V.I. Kabrinning aytishicha, «inson hayotining universumida uzlusiz qadriyatlar jarayoni mavjud» qadriyatarning chegarasizligi, ularni o'zga fenomenlarga o'xshatish va ularni predmetlar, harakatlar va vaziyatlarga yaqinlashtirishdir [7]. X.M. Vegas tomonidan ilgari surilgan fikrga ko'ra, «qadriyat tushunchasini» aniqlashtira olmaslik, kelib chiqishi bo'yicha dastlabki tushuncha bo'lib, boshqa hech qaysi tushunchaga o'girilmaydi [4].

Ye.M.Udovichenkonning lug'atida qadriyat aksiologik mustahkam o'zak bo'lib, sub'ekt, ijtimoiy guruh yoki butun jamiyat (sotsium) uchun ijobjiy yoki salbiy ehtiyoj sifatida ochib

beradi. Qadriyatlar intilishlar ob'ekti, maqsadlar va yashash mazmuni sifatida namoyon bo'ladi. Ahamiyatli joyi shundan iboratki, qadriyat predmetga emas, balki unga sub'ektning nuqtai nazariga tayanadi. Qadriyatlar ikki guruhga bo'linishi mumkin: moddiy (utilitar) va ma'naviy (yuksak). Shu bilan birga qadriyatlarni guruhlarga ajratish nisbiy tushunchadir [15].

S.A. Lebedevning ta'rificha, qadriyatlar muhim universal maqsadlar va etalonlardir (qabul qilingan normalar) [8].

S.Yu. Golovinning aytishicha, qadriyatlar guruh, ijtimoiy birlarshma va umuman yaxlit sub'ekt bo'lgan butun insoniyat hayotiy faoliyatini mahsuli hisoblanadi. Qadriyatlarning mavjudligining uch shakli ajratiladi:

1. Ijtimoiy etalon – jamiyat tomonidan shakllangan ong bo'lib, o'z ichiga jamiyatning mavjud bo'lgan barcha sohalaridagi ma'lum bir «bo'lishi shart, kerak» degan tushunchaning nazariy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ushbu qadriyatlar umuminsoniy va aniq-tarixiydir.

2. Ob'ektivlashtirilgan shakli, moddiy va ma'naviy madaniyat asarlarda, shuningdek, insoniy xatti-harakatlarda, qadriyatli ideallarning aniq predmetlarda namoyon bo'lishida jamlangan.

3. Ijtimoiy qadriyatlar, individual hayot faoliyati orqali modifikatsiyalashib, shaxsning psixologik tarkibiga o'tadi hamda shaxsiy qadriyatga aylanib, shaxs xulq-atvorining motivatsiya manbaiga aylanadi [6].

E.A. Arutyunyanning fikriga ko'ra, global ma'noda ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar mavjud. Ijtimoiy qadriyalarni shaxsiylarga o'tishi shaxsning ijtimoiy o'zaro aloqalari orqali amalga oshiriladi, aynan, ijtimoiy guruhnini taqdim etuvchi «mikromuhit» jamiyat qadriyatlarini o'tkazgich vazifasini bajaradi [2, s.32].

L.P. Buevanning nuqtai nazariga ko'ra, qadriyatlar shaxsni jamoa faoliyati bilan bog'lovchi, aniq bir jamiyat qadriyatlari jarayoniga kirishishiga vositachi bo'lib, shu bilan birga ijtimoiy xulq-atvorining qadriyatlar, muhitning tarbiya maqsadlari va ijtimoiy guruhlarning funksiyalash nazorat usullaridir. Shuningdek, shaxsga ijtimoiy rivojlashnish va moslashish imkonini beradi [3].

Hayotiy tajriba orttirish jarayonida shaxsiy qadriyatlar ishlab chiqiladi, ular mohiyatan, hissiyotli, shaxsni hayotga munosabatiga tegishli mazmun mohiyatga ega bo'lishi kerak. Shaxsiy qadriyatlar o'zi bilan shaxsiy hayotiy faoliyatning ijtimoiy madaniy boshqaruvchi determinatsiya mexanizmi bo'lib, shaxsning psixologik tuzilmasiga kirish bilan bir qatorda jamiyat ma'naviy madaniyati va shaxsning ma'naviy dunyosi bilan bog'lovchi element hisoblanadi. Ijtimoiy qadriyatlarni shaxsiy qadriyatlarga interiozatsiyasi og'ishlar bilan o'tishi mumkin, ya'ni shaxsiy qadriyatlarning deviant tuzilmasi yuzaga chiqishi mumkin. Shaxsning normal va deviant qadriyatlar tizimining shakllanishi dastabki kichik guruhlar –oila ta'sirida amalga oshadi [16].

M.S. Yaniskiyning ta'kidlashicha, shaxs qadriyatlar tizimi taraqqiyotining o'ziga xosliklari – turli xil ichki va tashqi omillari ta'siri natijasida: kognitiv va hissiy-irodaviy sohaning rivojlanish darajasiga, atrof muhitning xususiyatlari, psixologik ta'sirning shakli va xarakteri, psixik faoliyatning buzilishining darajalariga bog'liq. Shaxsiy qadriyatlar tizim u yoki bu guruh qadriyatlarini ustun kelishi, tegishli psixologik mexanizmlarning ta'siri, shakllanishi davridagi individual taraqqiyotining bosqichi bilan belgilanadi. Bu borada aytish mumkinki, turli xil qadriyatlar turli kelib chiqishga ega bo'lishi mumkin [18].

Psixologiyada qadriyatlar shaxsning ongi elementlari, aynan, qiziqishlari, nuqtai nazar, tamoyillari, dunyoqararshi va hokazolar orqali tasvirlanadi. Qadriyatlar ong omili bilan amalga oshib, intilishlar, ideallar, qiziqishlar va shaxsning boshqa tuzilmasida namoyon bo'luvchi, uning borliqqa, atrofga munosabatining ichki asosini ko'rsatadi. Qadriyatlarni anglash yondashuvlari shaxs xususiyatlarini tadqiq etishning turli omillarida talqin etiladi. B.F. Lomovning yozishicha, «shaxs» tushunchasining xilma-xil ta'riflariga qaramay, uning barcha rus konsepsiyanlarda asosiy tavsifnomasi yo'nalganligi bo'lib, shaxsni tuzilmasini

shakllantiruvchi uning butun psixik qurilmasini asosi hisoblanadi. Muallif yo‘nalganlikni tasviralashicha, shaxs jamiyatdan (qadriyatlar) orttirgan va qabul qiligan, demak uning shakllanishiga hissa qo‘shadi [11, b.37].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yo‘nalganlik shaxsning sub’ektiv qadriyatlari reallikning ko‘pqirrali sohalarida namoyon bo‘ladi. Unga ko‘ra, qator olimlar tomonidan qadriyat muammosi o‘ziga xos tarzda talqin qilinadi. Jumladan, V.P.Tugarinov shaxs yo‘nalganligi ob’ekti psixologik xarakaterini ajratib, “qadriyatli yo‘nalishlari” degan tushunchasini qo‘llab, shaxsni u yoki bu qadriyatlarga yo‘nalganligi ma’nosini bildiradi [14].

V.N.Myasiшев, shaxsning mazmuni insoniyat tajribasining predmetli mazmuni va unga bog‘liq qadriyatlар tizimiga oila munosabatlar to‘plami bilan ifodalanadi, deb hisoblaydi. Shaxs ierarxik tizim dinamikasidagi shaxsiy munosabatlar tizimida bo‘lib, rivojlanish, tarbiya va o‘zini o‘zi tarbiya qilish jarayonida ishlab chiqiladi. «Dominantalashgan munosabat», shaxsning hayot mazmuni haqidagi qarorlari bilan bog‘liq yo‘llanmasi hisoblanadi [12].

Shaxsiy munosabatlarini bog‘liqlikligini tadqiq etish, milliy psixologiyada o‘z ahamiyatliligiga ko‘ra shaxsni ijtimoiy, muhit va jamiyatdan alohida tahlil etilishi mumkin emas. L.S.Vigotskiy «rivojlanishning ijtimoiy vaziyati» tushunchasini taklif qildi. Uning fikricha, shaxsning rivojlanishi sub’ekt tomonidan madaniy qadriyatlarni bilvosita muloqot jarayoni orqali anglashidir. Olimning ta’kidlashicha, mohiyat va mazmunlar shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning interiorizatsiyasi orqali vujudga kelib, sub’ekt ongiga «singdiriladi» [5].

L.S.Vigotskiyning fikricha, interiorizatsiya insonlarning muloqot qilish jarayonida vujudga keladi. Tadqiqotchi «kechinmalar bilan bo‘lishish» haqida so‘z yuritadi. Faollik g‘oyalar mohiyatini ochish mantiqiga binoan, bilvositalik va ijtimoiy munosabatlarning interiorizatsiyasida shaxs o‘z shaxsiy fazilatlari va boshqalarning interiorizatsiya qilingan sub’ektiv-intensional sifatlarni asl sintezi sifatida namoyon bo‘ladi [13].

A.V.Petrovskiyning nuqtai nazariga ko‘ra, L.S.Vigotskiyning ushbu muammoga nisbatan qarashlari individ va o‘zga individlarni shaxs tomonidan o‘zaro faollikning tashkillashgan o‘ziga xos shakli sifatida anglashi, undagi individning real borligi va boshqa individlarning ideal borlig‘i (individuallashtirish omili) bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa insonlarning real borlig‘ida individning ideal tasviri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ushbu olimlarning taxmin qilishlaricha, ijtimoiy taraqqiyotning shartlashgan bosqichida shaxsiylik individning tizimli sifati bo‘lib, alohida ijtimoiy qadriyat rolini o‘ynashni boshlab, insonlar individual faoliyatda o‘ziga xos misol sifatida xizmat qiladi [13].

V.A.Yadov o‘zining «shaxs ijtimoiy xulq-atvori regulyatsiyasining dispozitsion konsepsiyasida» dispozitsion tizimini ierarxik jihatini tashkillashtirishni asoslab berdi. Muallifning ta’kidlashicha, shaxs dispozitsiyalarining yuqori bosqichi, uning qadriyatlар tizimi orqali namoyon bo‘lib, ijtimoiy ehtiyojlar va insonni hayotiy maqsadlarga munosabati ularning qondirish vositalari orqali namoyon bo‘ladi. V.A.Yadovning fikricha, insonni qadriyatli qarashlari, dispozitsion tizimning eng yuqori bosqichi sifatida shaxs o‘zini mansub deb bilgan butun sotsium (jamiyat) bilan bog‘laydi. Qadriyatli qarashlar, insonni vital maqsadlari bilan shartlanib, shuning uchun juda muhim va shaxsiy mazmun orqali o‘zini ko‘rsatadi [17].

D.A. Leontevga ko‘ra, qadriyatlар – haqiqatda individ faoliyatnifaoliyat yurutuvchi regulyatorlari bo‘lib, uni ongdagi tiklanishiga qaramay, ularga mohiyatan, anglangan e’tiqodlarining psixologik tabiatiga ko‘ra, yoki sub’ektning o‘z qadriyatlari tasavvurlariga to‘g‘ri kelmaydiganlarni mavjudligini inkor etmaydi [10].

D.A.Leontev bir-biriga o‘tuvchi qadriyatlarni uch shaklini ko‘rsatgan: 1) ijtimoiy etalonlar, ijtimoiy ong tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, unda ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi ideal tasavvurlar majmuasi; 2) ushbu etalonlarni harakatlarda yoki aniq insonlarni mahsulotlarida gavdalantiruvchi ob’ektlar; 3) shaxsning motivatsion tuzilmasi («majburlik modellari») o‘z faoliyatida ijtimoiy qadriyatli ideallarni predmetlarda namoyon bulishiga undovchi [9].

D.A.Leontev qadriyatlarni salohiyatli guruhlarini ajratadi – terminal va instrumental. Terminal qadriyatlar quyidagicha qarama-qarshi ko‘rinishga ega: borliqning aniq qadriyatlari/ mavhum qadriyatlari; kasbiy o‘zini o‘zi kasbiy namoyon qilish qadriyatlari/shaxsiy hayot qadriyatlari; shaxsiy qadriyatlari/shaxslararo munosabatlari qadriyatlari; faol qadriyatlari/ sust qadriyatlari. Instrumental qadriyatlari quyidagi dixotomiylar ko‘rinishga ega: etnik qadriyatlari/shaxslararo o‘zaro ta’sir qadriyatlari/kasbiy o‘zini o‘zi namoyon qilish qadriyatlari; individualistik qadriyatlari/konformistik qadriyatlari/altruistik qadriyatlari; o‘zini o‘zi namoyon qilish qadriyati/o‘zgalarni qabul qilish qadriyati/; intellektual qadriyatlari/dunyoni bevosita emotsiyal his qilish qadriyati [9].

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, qadriyat tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, har bir fan doirasida o‘ziga xos yondashuv mavjudligidan dalolat beradi. Unga ko‘ra, qadriyat tushunchasi psixologik nuqtai nazardan insonning o‘ziga va atrofdagi insonlarga nisbatan munosabatlari tizimi bilan bog‘liq kategoriya sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa o‘z navbatida insonning ijtimoiy hayotiga muvaffaqiyatli moslashishini ta’minlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Алишев Б.С. Психологическая теория ценности: Системно-функциональный подход [электронный ресурс].
2. Арутюнян Э.А. Микросреда и трансформация общественных ценностей в ценностную ориентацию личности // Образ жизни и ценностные ориентации личности. - Ереван: Изд-во АН Арм. ССР, 1979. С. 49-61.
3. Буева Л.П. Социальная среда и сознание личности. - М.: Изд-во МГУ, 1968. - 268 с.
4. Вегас Х.М. Ценности и воспитание. Критика нравственного релятивизма. СПб.: Изд-во СПб. ун-та; Изд-во Рус. христ. гум. акад., 2007. - 225 с.
5. Выготский Л.С. Педагогическая психология / под ред. В.В. Давыдова. - М.: Педагогика-Пресс, 1996. - 536 с.
6. Головин С.Ю. Словарь практического психолога [электронный ресурс]. Режим доступа - URL: <http://vocabulary.ru/dictionary/25/word/cenost>.
7. Кабрин В.И. Транскоммуникация и личностное развитие. - Томск: Изд-во ТГУ, 1992. - 225 с.
8. Лебедев С.А. Философия науки: Словарь основных терминов [электронный ресурс].
9. Леонтьев Д.А. Методика изучения ценностных ориентаций [электронный ресурс].
10. Леонтьев Д.А. Ценностные представления в индивидуальном и групповом сознании: виды, детерминанты и изменения во времени // Психологическое обозрение, 1998. - №1. - С.13-25.
11. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. - М.: Наука, 1984. - 446 с.
12. Мясищев В.Н. Структура личности и отношение человека к действительности // Психология личности: Тексты / под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, А.А. Пузырея. - М.: Изд-во МГУ, 1982. - С. 35-38.
13. Петровский А.В. Вопросы истории и теории психологии: Избранные труды. - М.: Педагогика, 1984. - 272 с.
14. Тугаринов Василий Петрович // Философы России XIX-XX столетий. Биографии, идеи, труды. 3-е изд., перераб. и доп. М.: Академический Проект, 1999. С. 811.
15. Удовиченко Е.М. Философия: конспект лекций и словарь терминов (элементарный курс) [электронный ресурс].
16. Энциклопедический словарь Слово о человеке [электронный ресурс].
17. Ядов В.А. Социальная идентификация в кризисном обществе // Социол. журн. - 1994. - № 1. - С. 35-52.
18. Яницкий М.С. Ценностные ориентации личности как динамическая система [электронный ресурс].